



KELAJAK MARKAZLARDA QO'SHIMCHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

Nurmatova Nargiza To'ra qizi

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani "Kelajak" markazi direktori

Annotatsiya

So'nggi yillarda "Kelajak" markazlarida qo'shimcha ta'limni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlari oshib bormoqda. Tadqiqotimizda maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangilash jarayonida "Kelajak" markazlarining o'rni, faoliyat yo'nalishlari va bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, markazlarda ilm-fan, xorijiy tillar, kitobxonlik, madaniyat va san'at, kasb-hunar, axborot texnologiyalari, sport hamda boshqa yo'nalishlarda to'garaklarni tashkil etishning pedagogik ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Yurtimizda malakali mutaxassislar va nodavlat ta'lim tashkilotlarini jalb etish, to'garaklarni zamonaviy yagona dasturlar asosida takomillashtirish, chuqurlashtirilgan mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish hamda inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish qo'shimcha ta'lim sifatini oshiruvchi muhim omillar sifatida baholanadi. Maqolamizda "Kelajak" markazlarini moddiy va metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash, pedagoglarni rag'batlantirish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va o'quvchilarning individual qiziqishlariga mos ta'lim xizmatlarini shakllantirish masalalari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqotimiz natijalari shundan iboratki, "Kelajak" markazlari faoliyatini samarali tashkil etish orqali yoshlarning intellektual, ijodiy, kasbiy va jismoniy salohiyatini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *"Kelajak" markazlari, qo'shimcha ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, to'garaklar, ta'lim xizmatlari, o'quvchi yoshlar, ijodiy qobiliyat, kasbiy ko'nikma.*

Kirish

Zamonaviy dunyoda yosh avlodning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqishlari, iste'dodi va individual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish hamda qo'shimcha bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish maktabdan tashqari ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida deb qaralmoqda. Umumiy o'rta ta'lim bilan bir qatorda tashkil etiladigan qo'shimcha ta'lim o'quvchilarning dars jarayonida egallagan bilimlarini mustahkamlash, ularni muayyan fan va faoliyat yo'nalishlariga chuqurroq yo'naltirish hamda ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun muhim pedagogik imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, 6–18 yoshdagi bolalarni ilm-fan, xorijiy tillar, kitobxonlik, madaniyat va san'at, kasb-hunar, axborot texnologiyalari va sport kabi yo'nalishlarga jalb etish ularning intellektual, ma'naviy, jismoniy va kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'limni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, mavjud ta'lim muassasalarini yagona tizimga birlashtirish va yoshlar uchun qo'shimcha ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda "Barkamol avlod" maktablari, "Yoshlik" sport jamiyati, O'quvchi yoshlar markazi hamda O'zbekiston



bolalar tashkiloti negizida “Kelajak” markazlarini tashkil etish orqali maktabdan tashqari ta’limning yangi tashkiliy modeli shakllantirilmoqda. Respublika, hududiy va tuman (shahar) darajasida “Kelajak” markazlarining faoliyat yuritishi qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini hududlarning ijtimoiy-pedagogik ehtiyojlari hamda o‘quvchilarning qiziqishlariga mos ravishda tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi. Fikrlarimiz dalili sifatida, “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorida “Kelajak” markazlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qator muhim vazifalar belgilangan. Jumladan, Respublika “Kelajak” markazini tashkil etish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman va shaharlarda “Kelajak” markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ayrim hududlarda bolalar sayyohlik bazalarini tashkil etish kabi chora-tadbirlar belgilangan. Mazkur yondashuv qo‘shimcha ta’limni faqat an’anaviy to‘garaklar doirasida emas, balki bolalarning bilim olish, ijod qilish, sport bilan shug‘ullanish, kasbiy yo‘nalishlarni o‘rganish va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi ko‘p tarmoqli ta’lim muhiti sifatida shakllantirishga zamin yaratadi. “Kelajak” markazlarining umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari bilan uzviy aloqasini kuchaytirish maqsadida o‘quvchilar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maktab maslahatchisi lavozimining joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Maktab maslahatchisi o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash, ularni tegishli to‘garaklarga yo‘naltirish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda maktab va “Kelajak” markazi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim bo‘g‘in vazifasini bajarishi mumkin. Shu bilan birga, malakali va sertifikatga ega mutaxassislarni moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarining belgilanishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi omillardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-dekabrda 776-son qarori bilan “Kelajak” markazlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yanada aniqlashtirildi. Mazkur qaror asosida markazlarning namunaviy shtatlari, xodimlar mehnatiga haq to‘lash shartlari va markazlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish masalalari belgilangan. Markazlarning davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritishi, o‘z ustavi, bank hisobvarag‘i va boshqa tashkiliy atributlarga ega bo‘lishi ularning mustaqil va tizimli faoliyat yuritishi uchun huquqiy asos yaratadi. Shuningdek, markazlarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat budjetidan mablag‘ ajratilishi ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim jarayonini zarur jihozlar bilan ta’minlash va zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi. “Kelajak” markazlarining ko‘p tarmoqli faoliyat yuritishi qo‘shimcha ta’limning mazmunini sezilarli darajada kengaytiradi. Markazlarda maktabga tayyorlov, ilm-fan, xorijiy tillar, kitobxonlik, madaniyat va san’at, kasb-hunar, axborot texnologiyalari hamda sport yo‘nalishlarida to‘garaklar tashkil etilishi o‘quvchilarning turli qiziqishlarini qamrab olish imkonini beradi. Bunda ta’lim yo‘nalishlarini hududning o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlar va bolalarning real ehtiyojlari asosida belgilash muhimdir. Masalan, axborot texnologiyalari to‘garaklarida dasturlash va raqamli savodxonlikni, xorijiy tillar mashg‘ulotlarida kommunikativ ko‘nikmalarni, san’at yo‘nalishlarida ijodiy tafakkurni, sport to‘garaklarida esa jismoniy





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



faollik va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Qo'shimcha ta'lim samaradorligini oshirishda malakali mutaxassislarni jalb etish ham muhim omil hisoblanadi. "Kelajak" markazlariga shartnoma asosida tajribali mutaxassislar va nodavlat o'quv markazlarini jalb etish imkoniyatining yaratilishi ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, chuqurlashtirilgan to'garaklarni tashkil etish orqali o'quvchilarni Prezident, ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorlash, muayyan fan yoki kasbiy yo'nalish bo'yicha bilimlarini kengaytirish mumkin. Bunday mashg'ulotlarning individual yoki kichik guruhlar shaklida tashkil etilishi o'quvchilarning shaxsiy ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi.

Markazlarda to'garaklar faoliyatining zamonaviy va yagona dasturlar asosida bosqichma-bosqich ixtisoslashtirilishi ham qo'shimcha ta'lim sifatini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Yagona dastur asosida ishlash mashg'ulotlar mazmunining izchilligini ta'minlash, ta'lim natijalarini baholash va turli hududlarda faoliyat yuritayotgan markazlar o'rtasida metodik uyg'unlikni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, to'garaklarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli vositalar va amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi. "Kelajak" markazlarida inklyuziv to'garaklarni tashkil etishga e'tibor qaratilishi qo'shimcha ta'limning ijtimoiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning teng sharoitlarda ta'lim olishini ta'minlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy muhitga moslashishiga ko'maklashish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Inklyuziv to'garaklarda faoliyat yurituvchi pedagoglarni moddiy rag'batlantirish esa bunday mashg'ulotlarning sifatli tashkil etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, "Kelajak" markazlarini rivojlantirish orqali maktabdan tashqari ta'limning tashkiliy, metodik va pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur markazlarning ko'p tarmoqli faoliyati, malakali mutaxassislarni jalb etish imkoniyati, zamonaviy ta'lim dasturlarining joriy qilinishi, inklyuziv to'garaklarning rivojlantirilishi, maktab maslahatchisi faoliyatining yo'lga qo'yilishi va ota-onalar bilan hamkorlikning kuchaytirilishi o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli "Kelajak" markazlarda qo'shimcha ta'limni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish, mavjud mexanizmlarni tahlil qilish va ularni yanada takomillashtirish yo'llarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. "Kelajak" markazlarining tashkil etilishi O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu markazlarning asosiy vazifasi 6–18 yoshdagi bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda qo'shimcha ta'lim orqali individual rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratishdan iborat. Markazlarning ko'p tarmoqli faoliyat yuritishi o'quvchilarga bir vaqtning o'zida turli ta'lim yo'nalishlaridan foydalanish imkonini beradi. Xususan, ilm-fan, xorijiy tillar, kitobxonlik, madaniyat va san'at, kasb-hunar, axborot texnologiyalari va sport yo'nalishlarida to'garaklarning tashkil etilishi bolalarning turli qiziqishlarini qamrab olishga xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Maqolamizda asosiy xulosa sifatida yoritiladiki, markazlardagi to'garaklarning zamonaviy va yagona dasturlar asosida bosqichma-bosqich ixtisoslashtirilishi qo'shimcha ta'lim mazmunini tizimlashtirishga yordam beradi. Yagona dastur o'quv mashg'ulotlarining maqsadi, mazmuni va kutilayotgan natijalarini aniq belgilash imkonini beradi. Bunda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, interfaol metodlardan foydalanish va raqamli ta'lim vositalarini mashg'ulotlarga tatbiq etish muhimdir. Masalan, axborot texnologiyalari to'garagida o'quvchilarga dasturlashning boshlang'ich asoslarini o'rgatish bilan bir qatorda kichik loyihalar yaratish topshirig'ini berish ularning amaliy kompetensiyasini shakllantiradi. Xorijiy til mashg'ulotlarida esa dialog, rolly o'yin va multimedia vositalaridan foydalanish kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishiga yordam beradi. "Kelajak" markazlarining moddiy va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi ham qo'shimcha ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Markazni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining tashkil etilishi hamda davlat budjetidan mablag' ajratilishi ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan jihozlar, kompyuter texnikasi, asbob-uskunalar va boshqa moddiy resurslarni xarid qilish imkonini kengaytiradi. Shuningdek, ota-onalar to'lovlaridan tushgan mablag'larning markaz faoliyatini rivojlantirish, xodimlarni rag'batlantirish, madaniy tadbirlarni tashkil etish va moddiy-texnik bazani yaxshilashga yo'naltirilishi markazlarning barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Markazlarda o'quvchilarning yutuqlarini rag'batlantirish mexanizmlarining mavjudligi ham ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro, respublika miqyosidagi tanlov, musobaqa va festivallarda g'olib bo'lgan o'quvchilarni tayyorlagan to'garak rahbarlarini moddiy rag'batlantirish pedagoglarning kasbiy faolligini oshiradi. Bu esa pedagoglarni o'quvchilar bilan individual ishlash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni turli tanlovlarga maqsadli tayyorlashga undaydi. Shu bilan birga, "Kelajak" markazlarida ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ota-onalarning farzandining qiziqishi va qobiliyatini to'g'ri anglashida markaz pedagoglari bilan muntazam muloqot qilishi muhimdir. To'garaklarni tanlash, mashg'ulotlar mazmunini belgilash va bolaning ta'limiy rivojlanishini kuzatishda ota-onalar ham faol ishtirok etishi lozim. Bunday hamkorlik o'quvchining qo'shimcha ta'limdagi faolligini oshiradi va ta'lim natijalarining barqaror bo'lishiga yordam beradi. Ushbu omillarning birgalikda amalga oshirilishi maktabdan tashqari ta'limning mazmunini boyitib, yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va kasbiy salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-277-son qaror. 2025-yil 8-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Kelajak" markazlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 776-son qaror. 2025-yil 10-dekabr.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. “Kelajak” markazlarini qo‘llab-quvvatlash va maktabdan tashqari ta’limni rivojlantirishga oid materiallar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent, 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Ta’lim to‘g‘risida”. O‘RQ–637-son. 2020-yil 23-sentyabr.

6. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO, 2021.

7. UNICEF. The State of the World’s Children 2021: On My Mind – Promoting, Protecting and Caring for Children’s Mental Health. New York: UNICEF, 2021.

8. OECD. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2024.

9. World Bank. Realizing the Future of Learning: From Learning Poverty to Learning for Everyone, Everywhere. Washington, DC: World Bank, 2020.

10. Anhor.uz. “Kelajak” markazlari faoliyatiga oid axborot materiallari.